



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH



ABSTRACT

Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyaning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri, shuningdek, integrativ yondashuvning fanlararo bog'liqlik va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Metodologik jihatdan kuzatuv, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba va diagnostik testlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyati, pedagogik nutq, refleksiv fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tahlil jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interfaol metodlar va modulli ta'lim texnologiyalarining samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan. Xulosa sifatida integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy muloqotga tayyorgarligini oshiruvchi innovatsion pedagogik model sifatida asoslab berilgan.



KEYWORDS

Integrativ yondashuv

kommunikativ kompetensiya

bo'lajak tarbiyachi

pedagogik muloqot

kasbiy kompetensiya

maktabgacha ta'lim

interfaol metodlar

интегративный подход

коммуникативная компетентность

будущий воспитатель

MAQOLA MATNI

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Karimova Feruzaxon Zakirovna

Annotation: This article examines the theoretical and methodological foundations for developing communicative competence of future preschool educators based on an integrative approach. The study analyzes the role of communicative competence in enhancing the effectiveness of pedagogical practice within early childhood education, as well as the significance of the integrative approach in forming professional skills through interdisciplinary connections and practical activities. The research employs observation, comparative analysis, pedagogical experiment, and diagnostic testing methods. The results indicate that an educational process based on an integrative approach significantly enhances communication culture, pedagogical speech, reflective thinking, and collaboration skills among future educators. The analysis also reveals the high effectiveness of interactive teaching methods and modular learning technologies. In conclusion, the integrative approach is justified as an innovative pedagogical model that improves the professional communicative readiness of future preschool teachers.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki maktabgacha yosh davri bolaning intellektual, ijtimoiy-emotsional hamda kommunikativ rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, ushbu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan tarbiyachining pedagogik mahorati va muloqot kompetensiyasiga bog'liqdir. Bugungi kunda pedagogning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki samarali muloqot olib borish, bolalar, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi muhim kasbiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish oliy pedagogik ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Kommunikativ kompetensiya pedagogning nutq madaniyati, tinglash ko'nikmasi, empatik munosabati, pedagogik takt, refleksiv fikrlash hamda nizoli vaziyatlarni samarali boshqarish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi murakkab integrativ sifatdir. So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv bilan bir qatorda integrativ yondashuvga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Integrativ yondashuv turli fanlar, metodlar va amaliy faoliyat elementlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali talabning kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv bo'lajak tarbiyachilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy faoliyatda moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya rivojlantirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari D. Raven, A. Xutorskoy, I. Zimnyaya kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, pedagogik integratsiya va kommunikativ faoliyat masalalari V. Bespalko, N. Muslimov, Sh. Sharipov va boshqa tadqiqotchilar ilmiy ishlarida yoritilgan. Biroq bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini aynan integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning metodik mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi - integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, metodlari va samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, integrativ ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari hamda ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ model taklif etilib, interfaol metodlar, refleksiv topshiriqlar va amaliy kommunikativ vaziyatlar asosida pedagogik samaradorlik mexanizmlari ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

TAHLILI

Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi pedagogning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki samarali kommunikativ faoliyat olib borish qobiliyatlarini ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli mazkur muammo xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari dastlab g'arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, D. Raven kompetensiya shaxsning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi psixologik va ijtimoiy sifatlar majmui sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, kommunikativ kompetensiya pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. A. Xutorskoy esa kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim mazmunini amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish mexanizmi sifatida baholaydi. Uning ilmiy qarashlarida kommunikativ kompetensiya shaxsning axborot almashinuvi, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida talqin etiladi. I. Zimnyaya tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiya pedagogning kasbiy madaniyati tarkibidagi muhim komponent sifatida ko'rsatilib, unda nutq madaniyati, empatik yondashuv, refleksiv fikrlash va muloqot strategiyalarining o'zaro uyg'unligi asosiy mezon sifatida qayd etiladi.

Shuningdek, V. Kan-Kalik pedagogik muloqotning psixologik asoslarini o'rganib, tarbiyachining kommunikativ faoliyati bolalar bilan emotsional aloqani shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Pedagogik integratsiya masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda integrativ yondashuvning nazariy va amaliy imkoniyatlari keng yoritilgan. Xususan, V. Bepalko integrativ ta'limni o'quv jarayonida bilim, metod va faoliyat turlarining o'zaro uyg'unlashuvi sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, integratsiya ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga talabalarda kompleks fikrlash va kommunikativ faollikni shakllantiradi. N. Muslimovning ilmiy tadqiqotlarida esa bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda integrativ texnologiyalar asosida kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Mahalliy tadqiqotchilar orasida Sh. Sharipov, R. Ishmuhamedov, U. Nishonaliyev va boshqa olimlar pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berganlar. Xususan, R. Ishmuhamedov interfaol metodlar ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, jamoaviy hamkorlik va erkin muloqot muhitini shakllantirishini ta'kidlaydi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kommunikativ tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Tadqiqotlarda bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik nutqi, bolalar bilan muloqot madaniyati, ota-onalar bilan hamkorlik kompetensiyasi hamda konfliktologik tayyorgarligi masalalari o'rganilgan. Biroq mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv asosida kompleks rivojlantirishning metodik modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda XXI asr ko'nikmalari tarkibida kommunikativ kompetensiya yetakchi o'rinlardan birini egallashi ta'kidlanadi. UNESCO va UNICEF tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagoglarning kommunikativ madaniyati ta'lim sifati va bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi omil sifatida baholanadi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ko'p komponentli pedagogik jarayon bo'lib, u integrativ yondashuv, interfaol metodlar, refleksiv faoliyat va amaliy kommunikativ mashg'ulotlar uyg'unligida samarali amalga oshiriladi. Shu bois mazkur tadqiqotda integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ustuvor ilmiy vazifa sifatida belgilandi.

TADQIQOT NATIJALARI

shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Ayniqsa, nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlar, interfaol metodlar hamda refleksiv faoliyat bilan uyg'unlashtirilishi talabalar kommunikativ faolligining ortishiga xizmat qildi. Bu esa integrativ yondashuvning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi metodologik imkoniyatlari keng ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar davomida an'anaviy ta'lim modelida kommunikativ kompetensiyalar asosan nutq madaniyati yoki pedagogik muloqot doirasida cheklangan holda shakllantirilishi kuzatildi. Integrativ yondashuv esa kommunikativ kompetensiyani ko'p komponentli tizim sifatida rivojlantirish imkonini beradi. Ya'ni bunda pedagogik muloqot, empatik yondashuv, jamoaviy hamkorlik, konfliktologik kompetensiya, refleksiv fikrlash va axborot almashinuvi kabi tarkibiy qismlar o'zaro uyg'un holda shakllanadi. Pedagogik tajriba natijalariga ko'ra, interfaol metodlar — "Case study", "Debat", "Rolli o'yin", "Muammoli vaziyat", "Klaster" va "Aqliy hujum" texnologiyalaridan foydalanish talabalar o'rtasida erkin fikr almashinuvi hamda kommunikativ faollikni sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali modellashtirilgan pedagogik vaziyatlar bo'lajak tarbiyachilarning bolalar va ota-onalar bilan samarali muloqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Bu holat V. Kan-Kalik va I. Zimnyaya tomonidan ilgari surilgan pedagogik muloqot nazariyalari bilan hamohangdir. Tadqiqot davomida integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar tomonidan refleksiv tahlil va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari faol shakllangani aniqlandi. Refleksiv faoliyat bo'lajak tarbiyachilarda o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va pedagogik vaziyatlarga mos strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berdi. Bu esa

kommunikativ kompetensiyaning nafaqat tashqi, balki ichki psixologik komponentlarini ham rivojlantirish imkonini yaratdi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida integrativ yondashuvning fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdagi ahamiyati qayd etildi. Xususan, pedagogika, psixologiya, nutq madaniyati, konfliktologiya hamda axborot texnologiyalari fanlari integratsiyasi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kommunikativ tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga xizmat qildi. Natijada talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda ko'p tomonlama yondashuvni qo'llashga erishdilar. Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini qisman tasdiqlaydi. Jumladan, A. Xutorskoy kompetensiyaviy yondashuvni amaliy faoliyat bilan bog'liq holda tashkil etish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, mazkur tadqiqotda integrativ yondashuv ana shu faoliyatni kommunikativ jihatdan boyituvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, N. Muslimovning kasbiy kompetensiyalarni integrativ texnologiyalar asosida rivojlantirish haqidagi qarashlari ham tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashdi. Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim talabalarda erkin muloqotga kirishish, auditoriya oldida fikr bildirish va nizoli vaziyatlarni boshqarish bo'yicha psixologik to'siqlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, integrativ mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun pedagoglardan yuqori metodik tayyorgarlik talab qilinishi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, muhokama natijalari integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik mexanizm sifatida samarali ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv orqali talabalarda nafaqat kommunikativ ko'nikmalar, balki kasbiy moslashuvchanlik, kreativ fikrlash va pedagogik hamkorlik kompetensiyalari ham rivojlanadi.

NATIJA

Tadqiqot davomida integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining bo'lajak tarbiyachilar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlashtirildi. Tadqiqotda pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi hamda ularda kommunikativ kompetensiyaning nutq madaniyati, pedagogik muloqot, empatik yondashuv, refleksiv fikrlash va jamoaviy hamkorlik kabi komponentlari diagnostik mezonlar asosida baholandi. Dastlabki tahlil natijalarida aksariyat talabalarda kommunikativ kompetensiyaning amaliy ko'rsatkichlari yetarli darajada shakllanmagani kuzatildi. Ayniqsa, auditoriya oldida erkin fikr bildirish, pedagogik vaziyatlarni kommunikativ jihatdan tahlil qilish hamda nizoli holatlarda samarali muloqot olib borish ko'nikmalarida qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi. Mazkur holat an'anaviy ta'lim jarayonida kommunikativ tayyorgarlikka yetarlicha integrativ yondashilmayotganini ko'rsatdi. Shundan so'ng tajriba guruhlarida integrativ yondashuv asosida maxsus pedagogik mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarda interfaol metodlar, modulli ta'lim texnologiyalari, kommunikativ treninglar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar hamda refleksiv topshiriqlardan foydalanildi. Nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirilgan holda talabalar real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirildi. Yakuniy natijalar shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida tajriba guruhi talabalari kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'sishga erishgan. Xususan, talabalarda pedagogik nutq ravonligi, muloqot madaniyati, tinglash va fikrni aniq ifodalash ko'nikmalari rivojlandi. Shuningdek, jamoada ishlash, pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda bolalar va ota-onalar bilan samarali kommunikatsiya olib borish malakalari mustahkamlandi. Tadqiqot natijalari refleksiv faoliyatning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori ekanligini ham ko'rsatdi. Talabalar o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va pedagogik vaziyatlarga mos strategiyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini egalladilar. Bu esa ularda kasbiy o'zini rivojlantirish motivatsiyasining shakllanishiga xizmat qildi. Integrativ yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar talabalarning kasbiy faolligi va mustaqil fikrlash darajasini oshirdi. Ular pedagogik muammolarga kreativ yondashish, turli kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish hamda samarali pedagogik hamkorlikni tashkil etish qobiliyatlarini namoyon etdilar. Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning

kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida nazariy bilim, amaliy faoliyat va kommunikativ tajribaning o'zaro uyg'unligini ta'minlab, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari hamda pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kommunikativ kompetensiya bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim o'rin egallab, pedagogik muloqot samaradorligi, bolalar bilan hamkorlik, ota-onalar bilan kommunikativ munosabatlarni tashkil etish hamda pedagogik jarayonni boshqarishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va pedagogik moslashuvchanligini oshirishini ko'rsatdi. Refleksiv faoliyat orqali talabalar o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ularning kasbiy o'zini rivojlantirish motivatsiyasini kuchaytirdi. Tahlillar asosida aniqlandiki, an'anaviy ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ko'proq nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Integrativ yondashuv esa nazariy bilimlarni amaliy kommunikativ faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Shu jihatdan mazkur yondashuv pedagogik ta'lim tizimida innovatsion model sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash dasturlariga integrativ kommunikativ treninglarni keng joriy etish;

pedagogik fanlararo integratsiyani kuchaytirish;

interfaol metodlar va raqamli kommunikativ texnologiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etish;

refleksiv va amaliy topshiriqlar ulushini oshirish;

pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini kuchaytirish hamda zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

Raven John Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis, 1984. – 251 p.

Хуторской Андрей Викторович Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. – Москва, 2003. – №2. – С. 58–64.

Зимняя Ирина Алексеевна Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – Москва, 2003. – №5. – С. 34–42.

Кан-Калик Виктор Абрамович Учителю о педагогическом общении. – Москва: Просвещение, 1987. – 190 с.

Беспалько Виктор Павлович Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

Muslimov Narzulla Alimuhamedovich Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 224 b.

Ishmuhamedov Rustam Jo'rayevich Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2017. – 180 b.

Sharipov Shavkat Abdullayevich Pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat asoslari. – Toshkent: TDPU, 2015. – 156 b.

UNESCO Rethinking Education: Towards a Global Common Good? – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 85 p.

UNICEF Early Childhood Development and Education Programs. – New York: UNICEF, 2019. – 102 p.

Leontyev Aleksey Nikolayevich Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.

Vygotsky Lev Semenovitch Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

Абдуллина Ольга Абдулловна Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. – Москва: Просвещение, 1990. – 141 с.

Сластенин Виталий Александрович Педагогика: инновационная деятельность. – Москва: Магистр, 2005. – 223 с.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022. – 120 b.